

Buxoro

Ilmdan o'zga najot yo'q

Gazeta 1957 yildan chiqa boshlagan



universiteti

Yashil Makon

Ona tabiat bilan ko'proq
hamkorlik odamlarni
sog'lomroq, aqlliyoq,
baxtliroq, ongliroq va
sog'lom fikrlashlarini
yaxshilaydi. Diqqatni jamlay
olmaslik, depressiyaning
oldini oladi.

2-bet

va

INSON SALOMATLIGI



#MANQURTLIK SARI OLG'A



*Kitob o'qib turgan
kishini ko'rsak, havas
qiladigan davrga keldik!*

4-bet

KELAJAK – BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA!

6-bet



TAQDIR

7-bet



*So'nggi pushaymon ozingga
dushman deyishadi, endi bari
kech edi. Otasi bu bolayotgan
ishlarga yuragi dosh bermay,
qattiq siqilishlar oqibatida yurak
xurujiga uchrab, vafot etdi.*

Yashil Makon va

INSON SALOMATLIGI



Har bir inson uchun tabiat tiriklik manbai, salomatlik maskani, yashash joyi hisoblanadi.

Shu bois har bir inson tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishi, uning gullab yashnashi va ravnaqi uchun o'z mehnatini ayamasi kerak. Har bir kishi ko'chat ekishi, ekin-tikin qilishi, har qarich yerdan unumli foydalanishi bu savobli amallarga kiradi. Agar kishi dunyodan o'tib, amal sahifasi yopilgandan keyin ham uning haqqiga doimiy ravishda savob borib turishi uchun yerga nihol yoki ko'chat ekish kerakligi muqaddas hadislarimizda ham ta'kidlab o'tilgan. Shunday ekan har bir yoshu qari o'z salomatligi, avlodlar salomatligi tabiat xilma-xilligi yo'lida ezgu ishlarni bajarib borishda chetda qolib ketmasligi kerak.

Har bir qishloq, shahar, tashkilot, muassasalarga ko'chatlarni ekishda ularning chidamliligi, moslashish darajasini, abiotik omillarni, har bir hudud ob-havosini inobatga olish kerak. Ko'chat turlarini tanlab, ko'p tomonlama ahamiyatlilikini inobatga olib, daraxtga aylanishining, uzoq vaqt yashab har tomonlama foydaliligini amalga oshirishi uchun tanlab ekish, ekishda agrotexnik usullarni o'z vaqtida qo'llash lozimdir.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi ijrosini ta'minlash o'z qadr-qimmatini anglagan va tushungan insonlar uchun asosiy faoliyat turidir. Bitta daraxt o'rtacha umri davomida 120 l kislorod ajratib chiqaradi. Inson 1 marta nafas olishi uchun esa 250-300 ml kislorod kerak bo'ladi. Endi buni yer shari aholisi soni bilan yoki uning nafas soni bilan matematik hisob kitob qilsak bu ko'rsatkich ham-maga ma'lum bo'ladi.

1 soat

$4250 \times 60 = 255000 \text{ ml}$

$5100 \times 60 = 306000 \text{ ml}$

1 sutka

$255000 \text{ ml} \times 24 = 6120000 \text{ ml}$

$306000 \text{ ml} \times 24 = 7344000 \text{ ml}$

Insoniyat tabiatga oshno va u bilan uyg'un yashaydi, uning har bir ne'matlaridan bahra olib yashaydi. Yashillik odam qalbiga, ruhiga xotirjamlik beradi. Shuning uchun ham biz go'zallik yaratishimiz, jannat-

makon bog', park, gulzor va ko'kal-mzorlashtirilgan hududlar yaratishimiz kerak, bu har bir inson salomatligi uchun asosiy ahamiyatga ega. Har bir shahar, jumladan biz yashab turgan shaharda ham yashil hududlar sershovqinlikni, changni kamaytirib, kislorodni ko'paytiradi, havoni tozalaydi. Jumladan, birgina misol astma kasalligining oldini oladi, jiz-zakilik va asabiylikni yengillashtiradi, yashil makon odamlarga quvonch beradi, tashvishlarni kamaytiradi, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Ya'ni ona tabiat bilan ko'proq hamkorlik odamlarni sog'lomroq, aql-liroq, baxtliroq, ongliroq va sog'lom fikrlashlarini yaxshilaydi. Diqqatni jamlay olmaslik, depressiyaning oldini oladi. Zararli va zaharli gazlardan asraydi. Ya'ni ularni yutib toza kislorod bilan tabiatni boyitadi ko'pgina tirik organizmlarning to'yib nafas olishini ta'minlaydi. Jumladan odamlarning ham yuqoridagilar bilan birga shaharda ko'payib ketgan transport turlarining shovqinidan va turli chiqindilardan asraydi.

Shaharlarda aholining katta qismi yashayotganligini inobatga olsak va aholining sog'lom turmush tarzini yaratmoqchi bo'lsak bu borada davlatimiz siyosatini qo'llab-quvvatlab, har bir shaxs to'g'ri, oqilona davlat siyosati darajasida yondashishi kerak. Qadim va hozirgi xalq maqolla-

rida ham nihol ekish, bog' qilish, ko'kal-mzorlashtirish, kelajak avlod uchun g'amxo'rlik qilish borasida to'xtalgan. Jumladan "Umid bilan su-qilgan tayoq bir kun berar mevasi yaproq. Yoki oilada bitta o'g'il far-zand tug'lsa uning nomiga kelajakda uy-joy qilish uchun yuztalab terak va boshqa qurilishbob daraxtlar ekil-gan, farzandlar kelajagi, uy, joy, im-koniyatlari uchun parvarish qilingan.

Yashil makonda sayr qilish, tabiat qo'ynida bo'lish odamga katta kuch quvvat berishi bilan birga ijodiy ilhom beradi, yangilikka, zamonaviy dunyo qarashga chorlaydi. Qadimda ham kelajakni ko'ra bilgan yosh avlodning kelajagini o'ylagan allomalarimizdan biri, so'z mulkining sultoni mir Alisher Navoiy bobomiz ham bu borada she'riy da'vat qilganlar. Jumladan:

*Tuxum yerga kirib, chechak bo'ldi,
Qurt jondin kechib, ipak bo'ldi.*

Lola tuxmicha g'ayrating yo'qmi?!

Pilla qurticha himmating yo'qmi?!

Bu borada Buxoro davlat universitetida, botanika va o'simliklar fiziologiyasi kafedrasida ham ilmiy, amaliy bir qator tahsinga loyiq ishlar olib borilmoqda. Jumladan viloyat iqlimi va tuproq muhitini inobatga olgan holda turli terak navlari, ko'p yillik daraxt-simon o'simliklar yetishtirilib, tumanlar kesimida Olot va Qarako'l tuman tashkilotlari, maktablariga va boshqa shahar tuman ehtiyojmand korxonalarga yetkazib berilmoqda. Yuqoridagilar bilan birga bu borada kafedra professor o'qituvchilari ilmiy-amaliy hamkorliklarni ham amalga oshirib kelmoqdalar. Shunday ekan har bir yoshu-qari o'z salomatligi va kelajak avlodi uchun ob-havoning tozaligini, kayfiyat bag'ishlashini va ko'rkamligini ta'minlash uchun ongli munosabatda o'z hissasini qo'shishi shart. Bu esa har bir insoning ikki dunyosi uchun ham qarz ham farzdir.

Baxtiyor JABBOROV

JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

Jahon mamlakatlarida bo'layotgani kabi mamlakatimizda ham globallashuv jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlantirilmoqda. Hozir jamiyatimizda ma'naviy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan yoshlar ilm olishi, texnologiyaga oid yangiliklar yaratishi uchun qator imkoniyatlar yaratilgan.

Yuqorida jamiyatimizdagi shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilganini aytib o'tarkanmiz yoshlar bu imkoniyatlardan qanchalik to'g'ri foydalanayotgani albatta barchaqa qiziq! Bizga azaldan ota-onaga hurmat, kasallardan xabar olish, qo'shnilardan hol - ahvol so'rash, bilim olish, qarindoshlarga yordam berish, vatanga va do'stlikka vafodor bo'lish, narsalarni isrof qilmaslik kabi milliy qadriyatlar shakllanib kelgan. Biz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Al-Xorazmiy, Bobur, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi shaxslarning asarlarini o'qib kelayotgan avlodlarmiz. Ming afsuski, shuncha imkoniyat va beqiyos meros qo'limizda bo'lsa ham so'nggi paytlarda jamiyatimizda loqaydlik, befarqlik, hayosizlik, yolg'onchilik, hasadchilik, ilmsizlik kabi illatlar ko'paysa ko'paymoqdaki, ammo kamayotgani yoq. Buni biz juda ko'p sohalarda ko'rishimiz mumkin. Bugungi maqolamda ayrim sohalardagi dolzarb axloqiy illatlarga to'xtalib o'tmoqchiman. Eng avvalo ekologiyaga oid axloqiy illat haqida gapiradigan bo'lsak. Hozirda qayerga borsangiz hammayoqda turli burchaklarda axlatlarni yastanib turganini ko'rasiz. Bizda ekologiyaga loqaydlik shunchalik kuchliki, odamlar qo'lidagi axlatni xohlagan joyga otib ketish oddiy bir "madaniyat"ga aylangan. Bu ham yetmaganidek jamoat joyida tamaki chekayotgan yoshlarni juda ko'p ko'rasiz. Bu yoshlarni hali maktab yoki universitetni bitirmay turib, to'da-to'da bo'lib tamaki chekishga nima yoki kim majbur qildi ekan deb odam hayratga tushadi. Tibbiyot asoschilardan biri bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning avlodlari orasida bunday axloqiy illatlar ko'payishi haqiqiy sharmandalik. Daraxtlarni ayovsiz kesish, suvni isrof va iflos qilish, ishlab chiqarish fonida zararli chiqindilar chiqarish, atrof muhitga to'g'ri kelgan joyga chiqindilar tashlash oxir-oqibatda ekologiyamizni jar yoqasiga olib kelyabdi. Bularning barchasiga sababchi esa jamiyatdagi loqaydlik va beparvolik oshib borayotganidir. Keyingisi esa ota-ona tomonidan yoshlar tarbiyasiga, ularning ta'lim olishini nazorat qilishda e'tiborsizlikka yo'l qo'yib



borayotganidir. Jamiyatdagi insonlar endi kitobga emas, balki ijtimoiy tarmoqlardagi bachkana "trend"larga talpinmoqda. Millatimiz yoshlari Buxoriylar-u Qodiriylarning asarlarini unutib hayosizlik va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi "zvezda"larning harakatlarini-yu so'zlarini o'rganyabdi. Nahotki jadidlarimiz mana shunday yoshlar uchun jonini berib ilm-fanni targ'ib qildi. Nahotki loqaydlik va e'tiborsizlik buyuk mutaffakirlar yetishib chiqqan yurtida kuchayib bormoqda. Bu ham yetmaganidek tariximizni, tarixiy shaxslarimizni o'zlarini-yu meroslarini o'rganishni xohlamaslik haqiqiy jaholatdir. Toki jamiyat fuqarolari milliy qadriyatlarini unutsa, ilm olishga talpinmasa, kitoblar kutubxonaga ko'rgazma bo'lib turaversa, hayosizlik, yolg'onchilik g'iybatchilik ortib boraversa, o'z tilini hurmat qilmasa oxir oqibat millat parokanda bo'lib bu xalqdan haqiqiy axloqiy buzuc bo'lgan manqurtlar yetishib chiqqan boshlaydi. Biz ma'naviyatni targ'ib qilishda turli bannerlarga va kitoblarga uzundan-uzun ta'riflarni yozish bilangina cheklanib qolmasdan unga amal qilishni ham milliy qadriyatlarimiz orqali targ'ib qilishimiz lozim. Bu esa avvalo oiladagi bola tarbiyasidan boshlanadi. Inson oilasini halol boqishi, ilm olishi, bir-biri bilan hurmat-izzatda bo'lishi, vatanga va do'stlikka vafo qilishi hammasini o'rgatuvchi bo'g'in oiladir. Behbudiy tarbiya va ilm olishni targ'ib qilishda oilaning roli qanchalik muhim ekanligini o'zining "Padarkush" drammasida yoritib o'tgan. Ilmsizlik bu jaholatdir. Jaholatni esa yengadigan birdan bir narsa bu ma'rifat. Shunday ekan ilm olish uni targ'ib etish, milliy qadriyatlarni hurmat qilib, unga amal qilish har birimizning burchimizdir.

#MANQURTLIK SARI OLG'A

Erta tong! Muazzin musulmon bandalarni najotga chorlamoqda. Haq taoloni qo'rsaganlar shirin uyqusidan kechib, poklanib, ibodatga turishmoqda. Lekin, bir o'lkada shunday "manqurtlar" yashaydiki, ular ota-onalarning tayanchi, orzu havasi, bobo-buvilarning suyuqli nevarasi, ustozlarning ishonchi va "kelajakning mevasi"...



Kitob o'qib turgan kishini ko'rsak, havas qiladigan davrga keldik!

Bu qahramonlarimiz ham xuddi boshqa odamlarday erda tongdan uyg'onadi, yeb ichadi, ishlaydi, "jonini jabborga berib" o'qiydi va hokazo. Bularning boshqalardan farqi, kunini bemavrid o'tkazadi. Orzu-havaslar bir dunyo pul, lekin harakat koeffitsiyenti nolga teng! Subhi sodiqda bomdod o'qish o'rniga qayerdagi bir tiyinga qimmat "mashhurlar"ning hayot yo'lini, bosib o'tgan "qiyinchiliklari"ni o'qishadi. Bu mavjudotlar badantarbiya qilishadi, faqat boshqacharoq masalan, barmoqlari va ko'zlari bilan: qo'llar ijtimoiy tarmoqlarda izohlar yozadi, ko'zlar fahshdan tortib, betayin qiliqlargacha bo'lgan videolarni tomosha qiladi. Bular o'qishga faqat davomat uchun boradigan "oliy ma'lumotli" shaxs! Ota-onasi peshana terisi bilan topgan pullarini tungi klublarda yoxud bilyardxonalaridagi o'yinlari uchun sarflaydigan zombilar! Hamma kitob o'qiyotgan paytda, bu "ilmi donishlar" PUBG degan o'yinning rivojiga-rivoj qo'shadigan "toliblar"! Kitob olishga pullari yo'q, ammo yeb ichishga pul bor! Chet ellarda bular qatori bir guruhlar borki, ular koinotni qanday zabt etishni muhokama qilayotgan bir paytda biznikilar esa o'qituvchilar bilan o'qish sifati haqida bahs qiladi! Kelajagim yaxshi bo'lsin deganlar chet tillarini o'rganib, lug'at yodlayotgan bir paytda bizning "so'fi"lar esa "Chingiz"ni gaplarini yodlab olayotgan bo'ladi! Buyuk allomalarimiz kechalarni ilm bilan bedor o'tkazgan! Bu qahramonlarimiz ham shunday, faqat bular "soliha yoki solih"lari bilan suhbatlar tashkillashtirishadi! O'zlari ibodatga sobit turmasada, Qur'onni nimaligini bilmasalarda, lekin ikkita xotin olish, soqol qo'yish sunnatligini bilishadi! Dinni niqob qilib olib turli xil vaynlar olishadi-yu, lekin "ketmoni uchgan paytda" odam tanimaydi! Eng qiziq joyi bu manqurtlar bir kun kelib ota-ona maqomini oladi. Qiziq, farzandlariga qanday ibrat bo'lishar ekan? Bunday zalolat botqog'iga botib qolgan millatni qanday kuch yorug'likka chiqarar ekan-a? Ochig'i, jamoat joyida kitob o'qib turgan kishini ko'rsak, havas qiladigan davrga keldik! Bir kun keladi, biz bugungi qilayotgan har bir ishimiz uchun so'roq qilnamiz! Har bir foydasiz yo'qotilgan daqiqalarimizni hisobini yillarga teng azoblar bilan alishamiz! Agar biz bugun uyg'onmasak, "mangu uyquga" tayyorgarlik ko'raveraylik!

Hamroqul RAVSHANOV,
BDU Agronomiya va biotexnologiya fakulteti talabasi.

Bugungi kunda keng tarqalgan ijtimoiy muammolardan bu ekologik muammolardir. Hozirgi kunga kelib ular global muammoga aylanib ulgurgan.

EKOLOGIK MUAMMOLARGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR

Bular:

- suv tanqisligi;
- havo va suv ifloslanishi;
- flora va fauna

dunyosining yo'qolib borayotgani;

- o'rmonlarning kesilishi;
- iqlim o'zgarishi kabi

muammolar hozirgi kunga kelib dolzarb masalaga aylangan.

Xo'sh, yuqoridagi global muammolarga kim yoki nima sababchi?! Bu savolga ko'pchiligimiz javob bera olamiz. Ammo lekin, nega bularni oldini olishga harakat ham qilib ko'rmaymiz. Nega? Nima uchun? Axir, biz o'zimizni jarlikka tashlamoqdamizku! Bu muammolar odamlar salomatligi va farovonligiga, shuningdek, butun sayyora taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Shubhasiz, bu salbiy oqibatlar insonlar resurslarni noto'g'ri foydalanishi natijasida kelib chiqyapti. Hozir, men sizlarga bugungi kunda dunyo oldida turgan bir muhim muammo-suv tanqisligi haqida gapirmoqchiman. Buning sababi shundaki, suv hayot uchun zarurdir, ammo bu cheklangan manba. Ko'p odamlar toza suvga ega bo'lishsa-da, hali ham bu jarayon davom etmoqda. Bu esa bir qator muammolarga olib kelishi mumkin, jumladan, suvsizlanish, suv orqali yuqadigan kasalliklar va suv resurslari bilan bog'liq nizolar.

Qashshoqlik, ochlik va tengsizlik kabi bir qancha muammolarni hal qilish kerak. Aks holda, yer sayyorasi kundan kunga yaranib boradi!

Bu muammolarni oldini olish qiyin bo'lishiga qaramasdan, biz kelajak avlod uchun yaxshiroq dunyo yaratishimiz kerak.

Sora SODIQOVA,
BuxDU talabasi

She'riyat bo'stoni

HAYOT DARSI

*Hayot misli jumboq,
Ne bo'lganin bilmay qolasan.
Yarmi qora, yarmi oq,
Goh hayratda qolasan.*

*Ishlaring yurishmay qolsa nogahon,
Boshingni qayerga urish bilmaysan.
Go'yo qolganday tilsiz bezabon,
Dardingni birovga ayta olmaysan.*

*Alloh suygan bandasin,
Dard berib sinar ekan.
Odamzodning nolasin,
Kim ham tinglar ekan.*

*Omading kelgan paytda,
Atrofingga qarab ko'r:
Zo'rman dema hech qachon,
Sendan ko'ra zo'rlar ko'p.*

*Alloh bergan sinov bu,
Yengib o'tish o'zingdan.
Hayotga bir qadam bu,
Kelar albat qo'lingdan.*

*O'tirmagin o'yga tolgancha,
Harakatdan to'xtama doim.
Sen kabilar dunyoda qancha,
Ko'rib turar yolg'iz Xudoyim!*

*Kun keladi, quyosh porlaydi!
Baxtli kuning albat keladi.
Faqat qilgin sabr va mehnat,
Barchasiga o'zi eltadi.*

*Shunda Allohni eslab,
Aytgin unga hamd-sano.
Yaratganga shukr deb,
Hayotdan izlagin ma'no!*

Hamroqul Ravshanov

OTA-YU ONANGNI SEN UNUTMAGIN

*Oyog'ing ostida yer silkinmasin,
Dushmaning oldida ko'z yoshlanmasin,
Umringdan hech qachun kun kamaymasin,
Ota-yu onangni sen unutmagin!*

*Boshingdan baxt qushi bevaqt uchmasin,
Do'stu-dushmanlaring sendan kulmasin,
Ollohning o'zi ham hech ranjimasin,
Ota-yu onangni sen unutmagin !*

*Yuzing ko'zingdan mehr ko'chmasin,
Yaqinlar izingdan bo'zlab qolmasin,
O'tgan tonglaring ham botmay botmay qolmasin,
Ota-yu onangni sen unutmagin!*

*Xayot-u baxtingdan fayz qochmasin,
Har qanday ishingdan omad qochmasin,
Hayot ham sendan yuz o'girmasin,
Ota-yu onangni sen unutmagin!*

*Niyating tilaging kuchi qochmasin,
Boshlagan ishlaring bitmay qolmasin,
Katta-yu kichikdan duong qolmasin,
Ota-yu onangni sen unutmagin!*

B.JABBOROV,

Buxdu Biologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

BEGIM SIZNI SEVAMAN

*G'am tashvishga egilmasin boshingiz,
Siz mehribon yo'ldoshimsiz bilaman,
Behudaga to'kilmasin yoshingiz,
Begim sizni juda qattiq sevaman.*

*Siz uchun urmoqda ko'ksimda yurak,
Men siz uchun doim duo qilaman.
Yaxshi-yomon kunda bo'layin tirgak,
Begim sizni boringizcha sevaman.*

*Bu pok qalbiz aslo kamlik ko'rmasin,
Ko'zingizga namlar soya solmasin,
Yuzlaringiz shodliklardan porlasin,
Begim sizni bir oshiqday sevaman.*

*Mag'rur tursin, nokaslarga egilmasin boshingiz,
Baxtga to'lgan, shirin o'tsin Alloh bergan yoshingiz,
Mehnat qiling halol bo'lsin, ko'cha-kuyda oshingiz,
Begim sizni telbalarcha, juda qattiq sevaman.*

*Kun kelganda besh vaqt birga ,sajdaga bosh qo'yaylik
Solihay-u solih bo'lgan farzandimiz, baxtlarini ko'raylik,
Savob yo'lida kecha-kunduz, biz douda bo'laylik,
Begim sizni bir oshiqday, boringizcha sevaman.*

Dilso'z TO'XTAMURODOVA,

**Buxoro davlat universiteti biologiya ta'lim yo'nalishi
3- bosqich talabasi**

YOSHLIK!

"Yoshlik - ezgu tuyg'ularning yangilanish davri!"

Darhaqiqat, yoshlar go'yoki guldan gulga qo'nib, bahorning naqshin sirlaridan guvoh nurli kapalakka o'xshaydi. Yorug'likka tashna, qalbi otash, hur.

"Hurriyat" degan tushuncha bor xalqimizda. Ozodmiz... Tinchmiz... Barkamolmiz... Hurmiz... Tinchlik hukm surayotgan mustaqil diyorda yashayapmiz. Shu muazzam o'lkaning dilbandimiz. Musaffo osmondan to'yib-to'yib nafas olaymiz. Shu emasmi asli, hurriyat?!

"Zamonamiz - yoshlar qo'lida!" - deb, bong urayotgan xalqimiz bejiz so'zlamas, albatta. Zero, mustaqillikdan keyingi yillarda yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatlar buning isboti sanaladi. Hukumat topshirig'i asosida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, tashabbusli g'oyalar buning yorqin namunasidir. Yoshlarning savodxonligi, ularning har jabhada iqtidor va iste'dodlarini namoyon qilishga qaratilgan ilg'or g'oyalar insonni yanada bilim sari chorlaydi. "Yoshlikdan qarilikkacha ilm oling" deganlaridek, biz, avvalo, bilimni yoshlik chog'imizdan ongimizga toshning zalvaridek singdirib olishimiz zarur.

Yoshlikda barcha kuchlar butun matonat-u tog'dek viqor bilan kelajakka qaratilgan bo'ladiki, bu umid ta'sirida xayoliy orzularni hayotiy maqsadga aylantirish otashi yoshlikni va yoshlar nigohini bezaydi. Asrlar nazdida olib qaraganda ham, bugungi davrga qadar mamlakatimiz kelajagi navqiron yoshlar bilan hamohanglikda kamol topib kelayotganligiga aminmiz. Barcha zamonlar va xalqlar tarixida yoshlar har doim

KELAJAK – BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA!



asosiy rol o'ynagan. Bu bejiz bo'lma-gan, albatta, chunki ular — kuch-g'ayrat, shijoat va jasorat kabi turli fazilatga ega. Hozirgi yoshlar o'z bilimi orqali bor salohiyatini zamona-viylashtirishga va ularni ma'lum pozitsiyaga ega yo'nalishga qaratib jahonning yetuk shaxslaridan biriga aylanishga qodir.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy soha yuzasidan amalda olib boriladigan ishlarning samaradorligini oshirish va ularni tizmiy asosda yuritish yuzasidan 5 tashabbus loyihasi ilgari surilgan. Bir so'z bilan aytganda ustuvor 5 tashabbus xalqimizning, ayniqsa yoshlar uchun serqirra imkoniyat eshiklarini ochishga tayyor kalit vazifasini o'taydi. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'naviyatli, ma'naviy barkamol yoshlar kelajagimiz poydevoridir. Dunyo manzaralari kun sayin tobora o'zgarib, jadal sayqallanib borar ekan, "tinchlik" degan nom-

ning tahdidi ko'payib bormoqda. Avvalo, dolzarb muammo hisoblangan "loqaydlik" o'z ildizimizga bolta urishidan ogoh bo'lishimiz darkor. O'zbek yoshlarining ong-u shuuriga ma'naviy kamolot, yetuklik, ozodlik-u erkinlik ruhi singdirilgan ekan, shu boisdan kelajagimizning gulshanbo'g'ini, uning rivojini takomillashtirish o'z qo'limizdadir.

Shu asnoda, rus yozuvchisi Ivan Turgenevning harakatchan, aniq maqsadni ko'zlagan bilimli yoshlarga qaratga aytgan quyidagi chorlovi maqsadlar ro'yobi o'ylaganimiz qadar ekanligini ko'rsatib turadi: "Ey yoshlar! Yoshlik!.. Balki jozibadorliklarinigizning butun siri hamma narsaga qodirligingizda emas, balki hamma narsaga erishaman, deb o'ylashdadir".

Nikolay Chernishevskiy

Dilnura JURAYEVA,
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti talabasi.



QALAM

**Kunlarning birida
stolda chalqancha yotgan
rangli qalamlar zerikib
qolishibdi, bir-birlariga
ma'noli qarab tuzuk gap
topisholmagach burchakda tik
xolda shay turgan qora qalamni
mazah qilishmoqchi bo'lishibdi.**

- Hoy sen qoravoy!!!
- Qora qalam indamabdi
- Senga gapiryapman qoraligigdan
tiling ham aylanmayaptimi deyman? deb

qalamlar xaxolab kulishib yuborishibdi.

- Bechoragina xayotda o'zi shundan faqat qora niyatta foydalanishadi, chizishadi-chizishadi xullas umrining zavqli rango-rang damlarini o'zi qoraytirib tugatib qoyadida!!!

To'sattan eshik ochilibdi-yu uy egasi bolakaychani qo'lidan yetaklagan holda xonaga kiribdi va stulga o'tirib oq qog'oz va qora qalamni qo'lga olibdi bundan rangli qalamlar hayratga tushishibdi. Bolakay qo'lida turgan uy egasi bolakay uchun koptok chizish maqsadida


dumaloq doira chizibdi. Bolakayning esa qo'lga rango-rang qalamlarni berib undan koptokchani bo'yashini so'rabdi. Bolakay jajji qo'lchalari bilan dumaloq shakldagi koptokchaga turfa ranglar berar ekan, qora qalam chizgan doiraning sirtidan o'tib ketibdi. Shunda yoning oyisi bolasiga tanbex beribdi.

Mehribonim manashu qora doiraning ichini ranglar bilan bezagin, doiradan tashqariga chiqib ketma yoqsa koptoging o'zingday chiroyli chiqmasligi mumkun.

Bolakay koptokchasini ranglarga bo'yab bo'libdi oyisi uning yuzidan o'pib, unga ertak aytib uxlatib qoyibdi.

Rangli qalamlar esa o'zlari mazah qilgan qalamning chizgan chizig'idan chiqisholmaganlari uni bekorga mazah qilganlari va undan qanday kechirim so'rashni bilmay turishganda qora qalam gap boshlapti.

Bizlar balki bir daraxtdan paydo bo'lgandirmiz, barchamizning vazifamizam ham balki bir xildir, lekin mening ichimdagi qora sizlarning rang barang bo'yoqlaringizdan ko'ra ancha oqroqdir, sizlarga maslaxatim kibzni, manmanlikni yig'ishtiring zero bu xislatlarning bari insonlarga xosdir, o'zlaringiz uchun tog'ri xulosa chiqar-mas ekan siz qalam o'ygich sizlarning jazolaringizni qanday berishni o'zi yaxshi biladi deb burchakdagi joyiga qaytibdi.



TAQDIR

Yillar o'tdi... Bu oilada jajji mehmon tug'ildi. Kuyov bola orzusidagi pahlavon bola, qo'chqordek chaqaloq. Bolaga yaxshi niyatlar bilan Komil deya ism qo'yishdi. Baxt-kamoli to'kis bo'lsin deb. Komil ulg'aygan sari betgachopar, quloqsiz bo'lib boraverdi. U kattalarga tinmay gap qaytarar, ba'zida qo'shni bolalarni urib qochardi. Maktabdan ikki baho olib kelaganida onasi qattiq urishdi lekin otasi buning uchun onasini kaltakladi. Nimaga bolaga qattiq gapiryapsan deb onasini urushdi. Mahallada

hamma Komildan bezor bo'ldi. Onasi uni koyiganda otasi yonini olar, uni juda ko'p erkalatardi. Shu sababli Komilning tarbiyasida katta muammolar paydo boshladi. Tarbiyasi otasining erkalashlari sababli buzilib bolgan edi.

Yillar otib Komil ulgaydi. Lekin oqish yolidan bormaganligi sababli ilmsiz bolib qoldi. Yomon yollarga qoshilib ketdi.

Hatto Komil bir rus ayoliga ilakishib qolib, u bilan turmush qurmoqchi bo'ldi. Rus ayol ham anoyilardan emas ekan. Dinimga kirsang,

Shaharning eng ziyoli oila farzandi qo'shni mahallaga kelin bo'lib tushdi. Turmush o'rtog'i ilmsiz, o'qimagan, biror Oliygo'ha u yoqda tursin, hatto maktabni ham tuzuk bitira olmagan yigit edi. O'rtada otalarning ahd-u paymoni sabab ikki yosh turmush qurishdi. Kelin Oliygo'hada o'qish davomida o'zidan qoniqmay turli qo'shimcha kurslarga qatnab ilm olgan, tarbiyali, iboli, uzoqni ko'ra biladigan qiz edi.

tegaman deb shart qo'ydi. Ota onasi ne-ne umidlarda katta qilgan Komil oxir oqibat kofirga aylandi...

Narkamanlik va qimorbozlik yolidan yurdi.

U qimorda qarz bolganligi tufayli uydan narsalarni olib chiqib sota boshladi. Uni yutqazgandan keyin hatto bu safargi qarzlari uchun uyni ham sotdi. Natijada ota-onasi kochada qoldi. Ularni esa qariganda qariyalar uyiga tashlab keldi. Ota-onasi keksaygan paytida bir chimdim mehrga zor bolib qolgandi. Qariganda shu ahvolga tushishni kim ham orzu

qiladi, axir?!

Aybi shu boldi: yoshlikdan qattiq turmash farzandiga, tanbehlardan himoya qildi, uning qilgan xatolariga ko'z yumdi.

Otasi uning yurishlaridan juda qattiq pushaymonda edi, chunki farzandini haddan ziyod erkalatib o'stirgandi. Lekin so'nggi pushaymon ozingga dushman deyishadi, endi bari kech edi. Otasi bu bolayotgan ishlarga yuragi dosh bermay, qattiq siqilishlar oqibatida yurak xurujiga uchrab, vafot etdi.

**Mohigul
ISTAMOVA,
BUXDU Agranomiya
va biotexnologiya
fakulteti 4-kurs talabasi**

Bir deraza yonida bir bola xayolga berilib o'tirardi. U oddiy emas stulda o'tirardi. Sutulam oddiy stul emas nogironlik aravachasi edi. Bu qahramonimizni oti Anvar bo'lib, atigi to'qqiz yosh bo'lishiga qaramay juda ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgandi.

Mana hozir xam u derazadan tashqariga qarab o'tirarkan bir kishi kelishini juda intizorlik bilan kutardi, u yam bo'lsa oyisini. Nilufar opa ertalab 6:00 dan kechki soat 6 gacha ishda bo'ladilar, katta bir do'konni tozalaydila. Shuncha ishlashiga qaramay nonushtani o'g'li ko'proq tanavvul qilishini xoxlaydi, chunki tushlik payti ishdan uyga kelolmasdi. Shuning uchunam Anvarjon kutadi, oyisini sabrsizlik bilan kutarkan tashqaridagi insonlarni tomosha qiladi. Bolalar quvlashmachoq o'ynashyapti Anvarning tegdoshlari Anvar ularning xar birini ismini biladi Yusuf Axmat Islom G'anisher va boshqalar lekin ular Anvarni bilishmaydi. Shu o'tirishda Anvarga bitta narsa juda

qattiq alam qildi, 9 yoshga to'libdi tashqariga chiqolmasa, xojatxonaga o'zi borolmasa, maktabga borolmasa, oyisiga faqat ortiqcha yuk bo'layotgan bo'lsa deb xayol surarkan juda qattiq achig'i chiqdi shu oyoqlaridan, shu qo'llaridan, shu aravachasidan juda qattiq nafratlanib ketdi. Birdan xayoliga oyisi

Murg'ak qalb

boshqa xona derazasini ochiq qoldirgani yodiga tushdi va hammasidan qutilgisi keldi va o'ziga o'zi shunday dedi. Yo hozir o'z oyoqlarim bilan yuriyman yoki bu dunyo menga kerakmas to'ydim dedi o'z-o'ziga va o'sha xonaga aravachasini burdi uyga bordi va o'rnidan turishga birinchi urinish qildi oyoqlari shunchalik o'ziga bo'ysunmardiki go'yoki u oyoq emas quruq taxta edi birinchi urinish o'xshamadi ikkinchisi o'xshamadi xar o'xshamaganda u juda qattiq yerga yiqilardi bor badani har yiqilganida shunaqin zirqirab og'rirdiki bu og'riq-

dan u 5 daqiqa yig'lab keyin o'ziga kelardi. Bo'ldi bas hammasidan charchadi bu dunyo unga juda alamli olamga aylandi. Sekin aravachasini ochiq deraza oynasiga yaqinlashtirdi, derazaga yaqinlashib romga bor kuchi bilan talpinib chiqdi, tashqari havo juda musaffo qushlar sayramoqda bolalar qiy chuvlashmoqda mashinalar o'tib qaytmoqda. Anvarjon ko'zini yumdi qushlarning sayrashini bir zum eshitib o'ziyam shu qushlarday erkin bo'lishi kerakligini tashqaridagilar qatori o'ynashni xayolidan o'tkazarkan chuqur nafas oldi va oddiy bitta qadamni bosdi va soat millari go'yoki u uchun to'xtaganday bo'ldi bir zumga bo'lsayam o'zini yengil xis qildi, va juda ayanchli tarzda vafot etdi. Anvarning oyisiga militsiya xodimlari telefon qilishdi bo'lasini qabrga qo'yarkan ona adoyi tamom bo'ldi. 3 kunda jinnixonaga 7 kundan keyin esa bolasining jigar bandining o'limiga chidayolmay o'zini jinnixonada osib o'ldirib qoydi.



O'ZBEKISTONIM

*Har go'shang, tog'laring, bog'laring go'zal,
Go'yo bir chamanzor, go'zal bo'stonim,
Bir hovuch tuptog'ing oltindan avzal,
Sensan ozod yurtim, O'zbekistonim.*

*Bizga ajdodlardan qolgansan meros
Tarixing buyukdir, hur gulistonim.
Sen uchun har qancha xizmat qilsam oz,
Jondan ham azizim, O'zbekistonim.*

*Barkamol avloding - farzandlaring bor,
Tinchliging barqaror, mangudir doim,
Yurtim - zavol ko'rma, xor bo'lma zinhor.
Seni doim qo'llab tursin Allohim.*

*Vatanim doimo gullab, yashnagin,
Qayg'u chekma zinhor dotonim,
Vatanim barqaror, mangu yashagin,
Buyuk ona yurtim O'zbekistonim.*

*Dunyo tarixiga nazar tashlasam,
Sening tarixingdan buyukrog'i yo'q.
Qalbim eshigini ochishsa degan,
Vatanimdek go'zal, suyukrog'i yo'q.*

Dilso'z TO'XTAMURODOVA,
Buxoro davlat universiteti biologiya ta'lim
yo'nalishi 3- bosqich talabasi

KO'NGLINGIZGA YO'L TOPOLMAY YASHADIM MEN

*Yig'ladim yolg'izim bugun tinmasdan,
Iloji bo'lmaydi parvo qilmasdan,
Ko'zlarim yoshlaydi hayot bilmasdan,
Ne qilay aytinglar, bir so'z demasdan.*

*O'tirsam o'poqman, tursamchi so'poq,
Hamma ozor berar, dilimga har choq.
Jonsiz kesakmidim, shuni o'ylab boq,
Yuragim yig'laydi, tinmaydi mutloq.*

*Barchaning bolasi mendan yaxshimi,
Mayli men bo'layin yomon baxshimi,
She'r yozib dardimdan xalos bo'layin,
Mayli men siz uchun yomon bo'layin.*

*Mayli bir kun meni qadrim bilarsizlar,
O'lsam meni qabrimga ham kelarsizlar,
Bir iltimos, qabrim kengroq qazarsizlar,
Ko'nglingizga yo'l topolmay yashadim men.*

*Ko'z yoshlarim shashqator bop oqar edi,
Nega hech kim bu qadrimga yetmas edi,
Dardlarimga yolg'iz Alloh guvoh edi,
Ko'nglingizga yo'l topolmay yashadim men.*

*Neki desam buni xato dedingiz siz,
Shirin desam, achchiq so'zga burdingiz siz,
Faqat, meni yomon deya ko'rdingiz siz,
Ko'nglingizga yo'l topolmay yashadim men.*

*Yoningizda aytolmadim, bir so'z aslo,
Yana xato bo'lmasin deb qo'rqrar edim.
Hech nojo'ya harakat ham qilmam aslo,
Ko'nglingizga yo'l topolmay yashadim men.*

«BUXORO UNIVERSITETI»



NASHR UCHUN MAS'UL:

Filologiya fakulteti o'zbek
tilshunosligi va jurnalistika kafedrası

TAHRIR HAY'ATI:

R. Jumayev,
T.Rasulov, A.Jo'rayev,
A.Amonov,
O'.Rashidov,
Q.To'xsanov,
G'.Murodov,
D.Rajabov, Z.Amonova

Bosh muharrir:

O.XAMIDOV

Adabiy kotib:

B.JAMILOVA

Mas'ul muharrir:

Z.ASADOVA

Operator-dizayner:

Mubina TOYIROVA

MANZIL:

Buxoro shahri
M.Iqbol ko'chasi,
11-uy.